MINTAQALARDA SANOAT SALOHIYATINI STATISTIK TAHLILI

Statistical Analysis of Industrial Potential in Regions

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
Urganch Davlat Universiteti (UrDU) Stajor o‘qtuvchisi
Dunyouz@mail.ru
+998 99 537 75 77

Annotatsiya: Maqolada mintaqalarda sanoatning barqaror rivojlanishi va sanoat salohiyati mezonlarini baholashga oid qarashlar tizimlashtirilgan. Hududlar rivojlanishiga xos xususiyatlarga ko‘ra sanoat salohiyati mezonlari tanlangan va ularga muvofiq baholash ishlari amalga oshirilgan. Natijalarga muvofiq mintaqa hududlarida sanoat salohiyatini oshirish takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat; ish bilan bandlik; infratuzilma; qurilish; ekologiya; investisiya; Xorazm.

Аннотатсия: В статье систематизированы подходы к устойчивому развитию промышленности в регионах и проведена оценка критериев промышленного потенциала. Критерии промышленного потенциала были отобраны с учетом специфики развития регионов, проводилась оценки. По результатам были разработаны предложения по повышению промышленного потенциала регионов.

Ключевые слова: промышленность; занятость; инфраструктура; строительство; экология; инвестиции; Хорезм.

Abstract: This article systematizes approaches to sustainable industrial development in regions and assesses industrial potential criteria. The criteria for industrial potential were selected based on the specific development characteristics of the regions, and the assessment was conducted. Based on the results, proposals were developed for increasing the industrial potential of the regions.

Key words: industry; employment; infrastructure; construction; ecology; investments; Khorezm.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barqaror darajasini ta’minlashda mintaqa va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati muhim manba sanaladi. Bunda, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish, uning ustuvor sohalarini aniqlash asosiy masala bo‘lib, ushbu jarayon mavjud omil hamda manbalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, mintaqalar barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim mezon sifatida uning tarmoqlariga e’tibor qaratishimiz zarur. Jumladan, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi hamda xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishiga erishish asosida umumiy mintaqa itqtisodiyotining barqarorligi ta’minlanadi1.

Shu bois, dastlab baholash jarayonlarida qo‘llanilayotgan usullarni ilmiy tahlilini keltirib o‘tamiz. Jumladan, mintaqalar barqaror rivojlanishi, ularni o‘zaro solishtirma tahlil qilishda keng tarqalgan usul bu integral usul hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu usulda ko‘rsatkichlarni tanlash va ularni minimumga yohudu makmimuga yoki shartli minimum va maksimumga nisbatan me’yorlashtirish qulay hisoblanadi.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvlarda mualliflar birgina integral usullar orqali mintaqa barqaror rivojlanishini baholashni ilgari surmoqda. Ushbu usul orqali baholash amalga oshirilganda natijaviy ko‘rsatkichni mintaqalar o‘rtasida solishtirish imkoniyati yaratiladi. Lekin, ushbu usulning kamchiligi – mazkur ko‘rsatkichlarni shakllanish manbalari, ularning omillarini tushuntirish imkoniyati cheklanganligidadir. Shu bois, mintaqa barqaror rivojlanishini natijaviy jihatdan baholaganimizda integral usllardan foydalanishimiz to‘g‘ri, lekin omilli tahlillarimizda korrelyasion-regression usllarni ham qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jumladan, bu yondashuv sanoat korxonasining rivojlanish darajasining barqarorlik jihatlarini bir taraflama baholash imkonini beradi. Aslida, barqaror rivojlanishni sanoat korxonalari bo‘yicha mintaqalar uchun tadqiq qilganimizda qiyosiy tahlil o‘tkazishimiz zarur.

1 УРАЗАЛИЕВ.Б.С MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHI BO‘YICHA ZAMONAVIY ILMIYNAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI. WWW.MARKETINGJOURNAL.UZ № 4-SON APREL, 2026-YIL 432 бет

Chunki, bu turdagi tahlil mintaqalar va hududlardagi sanoat salohiyatini o‘zaro solishtirishda eng qulay yondashuvdir. Shunday bo‘lsada, mazkur usul orqali sanoat salohiyati o‘zgarishini tushuntirish imkoni mavjud emas. Buning uchun sanoat salohiyati omillari va manbalarini baholashga ehtiyoj tug‘iladi. Mazkur baholashlarni amalga oshirishda ekonometrik tahlillardan ham foydalanishni tavsiya qilamiz.

Fikrimizcha mazkur usul salohiyatni baholashda faqat natijaviy jihatlarnigina qamrab oladi. Ushbu natijalarga erishish sabablarini ochib bermaydi. Bu esa, sanoat salohiyatini nafaqat natijaviy balki, omilli jihatlarini ham tushuntirishni talab qiladi.

Yuqoridagi ilmiy-uslubiy ma’lumotlarga muvofiq sanoat salohiyatini tahlil qilishda dastlab sohaning xom ashyo va resurslar bilan ta’minlanganligini ko‘rib o‘tamiz. Bunda, Xorazm viloyatining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq sanoatning ustuvor sohalari sifatida to‘qimachilik hamda oziq-ovqat ekanligini e’tiborga olsak, xomashyo bazasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sanaladi.

Jumladan, Xorazm viloyati hududlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati 2020-2025 yillarda notekis tebranganligini ifodalamoqda (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati hududlarida sanoatning xom ashyo (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish) salohiyati2

Hududlar nomi	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**	**O‘rtacha**
Xorazm viloyati	0,55	0,53	0,53	0,57	0,54	0,50	***0,54***
Urganch sh.	0,11	0,11	0,11	0,11	0,10	0,09	***0,10***
Xiva sh.	0,04	0,03	0,04	0,04	0,03	0,03	***0,04***
Bog‘ot	0,60	0,57	0,54	0,57	0,54	0,49	***0,55***
Gurlan	0,66	0,62	0,65	0,66	0,59	0,55	***0,63***
Qo‘shko‘pir	0,61	0,56	0,59	0,73	0,67	0,64	***0,64***
Urganch	0,66	0,60	0,59	0,63	0,59	0,57	***0,60***

2 Muallif xisob-kitoblari.

Hazorasp	0,54	0,55	0,50	0,48	0,43	0,38	***0,48***
Tuproqqal'a	0,40	0,41	0,43	0,43	0,43	0,37	***0,40***
Xonqa	0,61	0,58	0,59	0,66	0,61	0,55	***0,58***
Xiva	0,64	0,65	0,61	0,63	0,62	0,56	***0,59***
Shovot	0,62	0,58	0,60	0,66	0,63	0,58	***0,63***
Yangiariq	0,76	0,74	0,77	1,00	1,00	1,00	***0,83***
Yangibozor	1,00	1,00	1,00	0,96	0,85	0,07	***0,87***

Jumladan, viloyat va uning hududlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ko‘ra yuqori (0,80 va undan yuqori), o‘rtacha (0,60–0,79) va past (0,60 dan past) darajalarga ajratdik.

Tadqiqot natijalarimizga ko‘ra, yuqori darajadagi xom ashyo salohiyatiga ega hududlar soni cheklangan bo‘lib, ular asosan Yangibozor (0,87) va Yangiariq (0,83) tumanlari hisoblanadi.

Past darajadagi hududlarga Tuproqqal'a tumani (0,40), Urganch shahri (0,10) va Xiva shahri (0,04) kiradi. Mazkur hududlarda xom ashyo salohiyatining pastligi ularning iqtisodiy-geografik xususiyatlari bilan bog‘liq. Jumladan, shahar hududlarida qishloq xo‘jaligi yerlarining cheklanganligi sanoat uchun xom ashyo bazasining shakllanishini jiddiy cheklaydi. Tuproqqal'a tumanida esa ko‘rsatkichning nisbatan pastligi uning yangi tashkil etilgan ma'muriy birlik sifatida agrar infratuzilmasi to‘liq shakllanmagani bilan bog‘laymiz.

Shuningdek, Xorazm viloyati hududlarida ishchi kuchi va undan foydalanish holatiga ham alohida e'tibor qaratdik. Chunki, sanoat salohiyatining ijtimoiy mezoni zamirida bandlik masalasi yotadi. Shu bois, mintaqa shahar va tumanlaridagi holatni 2010-2025 yillardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, uch toifaga tansnifladik. Bunda, yuqori, o‘rta hamda past darajalar sifatida baholash ishlarini amalga oshirdik. Ya'ni, hududlar o‘rtacha ko‘rsatkichlariga muvofiq shartli ravishda yuqori (0,99 va

undan yuqori), o‘rtacha (0,98-0,99) va nisbatan past (0,98 dan past) darajalarga guruhladik.

Natijada, Xorazm viloyatining mehnat salohiyati umumiy holda juda yuqori va barqaror xarakterga ega bo‘ldi. Viloyat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 0,986 ni tashkil etgan.

Bu esa hududda ish bilan bandlik darajasi yuqori ekanligini va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ijobiyligidan daloalt beradi.

Shunday bo‘lsada, yuqori darajadagi mehnat salohiyatiga ega hududlar qatoriga Tuproqqal’a (0,993), Yangibozor (0,990) tumanlarini kiritdik. O‘rtacha darajadagi hududlar (0,98-0,99) sifatida esa Bog‘ot (0,987), Gurlan (0,988), Shovot (0,984), Yangiariq (0,988), Urganch (0,987), Xiva (0,982) va Xonqa (0,988) tumanlarini ko‘rsatib o‘tamiz. Nisbatan past darajadagi hududlarga (0,98 dan past) Qo‘shko‘pir (0,980) va Hazorasp (0,975) tumanlarini kiritamiz. Bu hududlarda ish bilan bandlik darajasi nisbatan pastligi mehnat resurslaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligini anglatadi. Ya’ni, sanoat uchun ijtimoiy salohiyat mezonlari mavjudligini ifodalamoqda. U esa, mintaqa hududlarida sanoatni ishlab chiqarish sanoatini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Sanoat salohiyatining yana bir muhim mezoni kapital hisoblanadi. Ushbu masala esa asosiy kapitalga kiriilgan investisiyalar darajasi bilan belgilanadi. Bu borada viloyatda oxirgi yillarda investisiyalar hajmining keskin sur’atlarda o‘sib borayotganligini e’tiborga olishimiz zarur. Shunday bo‘lsada, uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan hajmining hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili o‘zaro farqlanadi.

Jumladan, Xorazm viloyati hududlarida sanoatning kapital salohiyati o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ko‘ra yuqori (0,50 va undan yuqori), o‘rtacha (0,25–0,49) va past (0,25 dan past) darajalarga tasnifladik. Bunda, viloyat bo‘yicha umumiy tendensiya tahlil qilinganda, 2010-2011 yillarda nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar (0,66 va 0,82) qayd etilgan bo‘lsa, 2012 yildan boshlab keskin pasayish kuzatildi va keyingi yillarda

ko‘rsatkichlar asosan 0,19-0,34 oralig‘ida tebranib borgan. O‘rtacha ko‘rsatkich esa 0,35 ni tashkil etgan.

Yuqori darajadagi investision salohiyatga ega hududlar juda cheklangan bo‘lib, amalda faqat Urganch shahri mazkur guruhdan joy olgan. Bu holat shaharda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga investisiyalar yuqori darajada yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur hududda infratuzilma rivojlangan va viloyatning markazi hisoblanadi.

O‘rtacha darajadagi hududlar (0,25-0,49) Yangibozor (0,31), Urganch (0,29), Xonqa (0,27), Yangiariq (0,26) kabi tumanlarni o‘z ichiga olgan. Bu hududlarda investision faollik mavjud bo‘lsada, uning barqarorligi past va yillar kesimida sezilarli tebranishlarga ega. Past darajadagi investision salohiyatga ega hududlar (0,25 dan past) esa Bog‘ot (0,22), Gurlan (0,20), Hazorasp (0,20), Xiva (0,19), Tuproqqal’a (0,12) va Xiva shahri (0,15).

Bu holat mintqalarda investision faollikni oshirishga, uning jozibadorligini rivojlantirishga hamda xorijiy investisiyalar ko‘lamini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatkmoqda.

Mintaqada amalga oshirilayotgan investision faolyat natijasida viloyatning nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy qiyofasi, balki institusional jihatlari ham rivojlanmoqda. Bunda ayniqsa, infratuzilma salohiyatining o‘sib borayotganligiga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Jumladan, Xorazm viloyati hududlarida sanoatning infratuzilma salohiyati 2010-2025 yillar davomida tebranuvchi tendensiyaga ega bo‘lgan va viloyat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 0,5 birlikni ifodalagan.

Shuni alohida ta’kidlaymizki, ushbu ko‘rsatkichlar sanoatni rivojlantirish uchun moddiy-texnik bazani shakllanishi, hududiy infratuzilmaning kengayishi va investisiyalarning amaliy natijalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq, olingan o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida yuqori (0,70 va undan yuqori), o‘rtacha (0,40-0,69) va past (0,40 dan past) darajalarga guruhlashtiramiz.

Umuman olganda, tahlil natijalari Xorazm viloyatida sanoat infratuzilmasi hududlar kesimida nomutanosib taqsimlangan. Infratuzilma rivojlanishi asosan markaziy hududlarda jamlangan.

Yuqoridagi erishilgan natijalar o‘z navbatida yuqori ishlab chiqarish ko‘lamini ta’minlashga xizmat qilsada, uning atrof-muhitga salbiy ta’sirini ham o‘sishiga olib kelmoqda. Jumladan, Xorazm viloyati hududlarida sanoatning ekologik salohiyatini, ya’ni ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga ta’siri va ekologik barqarorlik darajasi 2010-2024 yillarda notekis tebranib borganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu olingan natijalarni viloyat darajasiga nisbatan hududlar o‘rtacha ko‘rsatkichlariga qarab shartli ravishda yuqori (0,50 va undan yuqori), o‘rtacha (0,10-0,49) va past (0,10 dan past) darajalarga tasnifladik.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarurki, mazkur hududlarda ustuvor tarmoqlar sifatida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan. Ya’ni, sanoat sohasining rivojlanish darajasi past. Demak, mintaqada ekologik barqarorlik bilan sanoat salohiyati o‘rtasida teskari bog‘lanish mavjud.

Shu bois, sanoat faoliyatini ham tahlil qilamiz. Xorazm viloyati hududlarida sanoat ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan ko‘rsatkichi asosidagi natijalar nomutanosib holatga ega. Jumladan, viloyatdagi ushbu ko‘rsatkichning 2010-2025 yillardagi o‘rtacha qiymati 0,18 ga teng. Shuningdek, shahar va tumanlar kesimida esa keskin farqlanuvchi kattaliklar aks etmoqda. Shu bois, tahlil jarayonida hududlar o‘rtacha ko‘rsatkichlariga muvofiq yuqori (0,50 va undan yuqori), o‘rtacha (0,20-0,49) va past (0,20 dan past) guruhlarga taqsimlaymiz.

Yuqori sanoat salohiyatiga ega hududlar sifatida Urganch shahri (0,66), Tuproqqal’a (1,0) va Xazorasp (0,32) tumanlarini keltirib o‘tamiz. O‘rtacha darajadagi hududlarga esa, Xonqa (0,14) tumanini kiritishimiz mumkin. Qolgan barcha hududlar past sanoat salohiyatiga ega hududlar hisoblanadi.

Jumladan, mintaqaning 76,9 foizi viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan past salohiyatga ega. Shu bilan birga, viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichi eng yuqori salohiyat mezonidan 6 barobarga past bo‘lsa, eng kichik qiymat 25 barobarga ortda qolgan.

Demak, mintaqa rivojlanishi, uning iqtisodiy mezonlarini ijobiy o‘zgarishi bilan bog‘liq faoliyat zamirida tovar hamda xizmatlar ko‘lamini oshirish yotadi. Bu jarayon esa, bevosita ishlab chiqarish resurslari sarfini talab qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sohaning rivojlanishi uchun esa aholi turmush darajasini oshirishga e’tibor qaratishimiz zarur. Buning zamirida daromadlarini oshirish talab qilinadi. Ushbu jarayon ham bevosita ishlab chiqarishni kengaytirish, qo‘shimcha ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini rivojlantirish, ularga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish hisobiga amalga oshiriladi. Bir so‘z bilan ifodalaganimizda, mintaqalar barqaror rivojlanishini ta’minlashda uch jihatning, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarning bir butun yaxlit mutanosibligiga e’tibor qaratishimiz zarur. Shu bois, mintaqa iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini sanalgan sanoat sohasini barqaror rivojlantirishga ustuvorlik qaratamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Валитова Л.А., Шерешева М.Ю. (2020). Динамический аспект в управлении устойчивым развитием территорий: пример Поволжского макрорегиона // Управленец. Т. 11, № 3. С. 18–32. DOI: 10.29141/2218-5003-2020 11-3-2.

2. Скворцова М.А., Малышева О.О. Применение метода многоугольников для анализа дифференциации регионов Приволжского Федерального округа по уровню социальной комфортности проживания населения // Экономика, Статистика и Информатика. №4, 2014. С. 179-183.

3. Перский Ю.К., Лепихин В.В., Семенова Е.В. Методика и модели оценки промышленного предприятия как устойчивой системы // ВЕСТНИК ПЕРМСКОГО УНИВЕРСИТЕТА. №1(24), 2015. С. 103-110.

4. Третьякова Е.А., Алферова Т.В., Пухова Ю.И. Анализ методического инструментария оценка устойчивого развития промышленных предприятий // Вестник Пермского университета. Вып.4(27), 2015. С. 132-139.

5. Расулов Ғ.С. Саноат тармоғини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари. // “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №3, 2018 йил.

6. Мамаджонов Д. Г. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида саноат тармоғининг бошқарув самарадорлигини ошириш йўллари. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил.

7.Салимов Б.Б. Саноат махсулоти ишлаб чиқаришнинг ҳудудлар бўйича қиёсий таҳлили ва уни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.